

Ulug'bek Abdullayev

t.f.n. dotsent, TDSHU

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temur davlati tashqi siyosati va xalqaro munosabatlari tarixini o'rganishning nazariy-konseptual asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xalqaro munosabatlarning realizm, liberal-institutsionalizm, konstruktivizm va sivilizatsion yondashuvlari uyg'un qo'llanib, Temur siyosatining ko'p qirrali tabiati ochib beriladi. Amir Temur diplomatiyasi harbiy geosiyosiy raqobat, savdo-iqtisodiy hamkorlik, madaniy almashinuv va ideologik o'zaro ta'sirlarni birlashtirgan kompleks tizim sifatida yoritiladi. Maqola Temur davlati tashqi siyosatini XIV–XV asrlar Yevrosiyo makonidagi xalqaro tizimning muhim elementi sifatida baholab, uning global barqarorlik, kuchlar muvozanati va sivilizatsiyalararo muloqotdagi o'rni teoriyaviy asosda tahlil qiladi.

Kalit so'zlar. Amir Temur, tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, realizm, liberalizm, konstruktivizm, sivilizatsion yondashuv, diplomatiya, geosiyosat, Yevrosiyo, savdo-iqtisodiy aloqalar, madaniy almashinuv.

Annotation. This article examines the theoretical and conceptual foundations for studying the foreign policy and international relations of the Timurid state under Amir Temur. By applying integrative approaches from realism, liberal institutionalism, constructivism, and the civilizational paradigm, the research reveals the multidimensional nature of Temur's external policy. His diplomacy is interpreted as a complex system combining geopolitical strategy, economic and trade cooperation, cultural exchange, and ideological interaction. The study positions the foreign policy of Amir Temur as a significant component of the fourteenth–fifteenth-century Eurasian international order and provides a theoretical analysis of his role in maintaining stability, fostering balance of power, and promoting inter-civilizational dialogue.

Key words. Amir Temur, foreign policy, international relations, realism, liberalism, constructivism, civilizational approach, diplomacy, geopolitics, Eurasia, trade relations, cultural exchange.

Amir Temur davlati tashqi siyosati va xalqaro munosabatlari tarixini tadqiq etish murakkab hamda ko'p omilli jarayon hisoblanadi. Temur tashqi siyosati va uning xalqaro munosabatlari tarixi savdo-iqtisodiy aloqalar, ilmiy va madaniy almashinuv, shuningdek, migratsiya jarayonlari tarixini ham o'z ichiga oladi. Xalqaro iqtisodiy, madaniy va demografik tarix harbiy-siyosiy tarix bilan bog'liq bo'lib, ularning birgalikdagi majmuasi xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi mohiyatini tashkil etadi.

Davlatlarning jahon siyosiy maydonidagi o'zaro hamkorligi doimo ilmiy muammo sifatida tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Ushbu jarayonni voqeliklar tavsifi orqali o'rganish xalqaro munosabatlar tarixi fanining vazifasi hisoblansada, xalqaro munosabatlar nazariyasi muayyan jahon tartibining vujudga kelishi va rivojlanishini tushuntiruvchi metodologik konstruksiyalarning shakllanishini tadqiq etadi. Xalqaro munosabatlar nazariyasi doirasidagi asosiy metodologik maktablar siyosiy realizm, neorealizm, liberalizm, neoliberalizm, konstruktivizm, institutsionalizm, funksionalizm, feminizm va boshqalar bo'lib, ular muayyan nazariy farazlarga asoslanadi hamda tahlil tizimini belgilab beradi.

Jamiyatning rivojlanishi va davlatlarning shakllanishi bilan birga tashqi siyosat ham paydo bo'ladi. Har bir davlat tashqi siyosatining muayyan yo'nalishini amalga oshiradi, boshqa tashqi siyosiy sub'ektlar bilan munosabatga kirishadi va ular bilan aloqalarni

muvofiglashtiradi. Hech bir davlat izolyatsiya holatida mavjud bo'la olmaydi. Uning xalqaro maydondagi mavqei sheriklar va raqiblar bilan munosabatlarni belgilashni, milliy manfaat va ustuvor yo'nalishlarni hisobga olgan holda munosabatlar tizimini shakllantirishni taqozo etadi. Davlatning tashqi siyosiy maqsadlari, avvalo, milliy xavfsizlikni ta'minlash, ichki siyosatda belgilangan milliy-davlat manfaatlariga erishish uchun qulay tashqi shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Davlatning mustaqil va erkinligi qatorida uning hududiy yaxlitligi va xavfsizligiga bo'lgan tahdidlarni bartaraf etish, xalqaro jarayonlarda ittifoqchilar va hamkorlarni izlash, xalqaro maydonda o'z nufuzi va rolini mustahkamlash kabi vazifalar ham mavjud. Qulay tashqi shart-sharoitlarni yaratish davlatning siyosiy mustaqilligi va suverenitetini ta'minlovchi muhim omil bo'lib, u mamlakatning tashqi siyosatini mustaqil yo'nalish sifatida shakllantiradi va umumiy siyosiy strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Xalqaro siyosatning shakllanishi va rivojlanish jarayoni avvalombor mahalliy va mintaqaviy darajalarda kuzatilgan bo'lib, faqat XX asrda u global o'lchovga ega bo'ldi. Xalqaro munosabatlar tizimidagi barcha aktorlar o'zaro bog'liq va yagona butunlikning tarkibiy qismlari sifatida hamkorlikda faoliyat yuritadilar. Shu bilan birga, tashqi siyosat ichki siyosatning davomi sifatida uning umumiy resurs bazasi bilan chambarchas bog'liq. "Tashqi siyosat" kategoriyasi xalqaro munosabatlar tarixidagi eng bahsli tushunchalardan biri bo'lib qolmoqda. Davlatning tashqi siyosati tashqi va, asosan, ichki omillar ta'sirida shakllanib, ularning murakkab o'zaro bog'liqligi natijasida vujudga keladi.

Hozirgi kunda "tashqi siyosat" atamasiga ta'rif berishda ikki asosiy tendensiya mavjud. Birinchisi, uni "davlatning xalqaro munosabatlar sohasidagi umumiy yo'nalishi" sifatida izohlasa, ikkinchisi, "xalqlar va davlatlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi" sifatida talqin qiladi. Aksariyat tadqiqotchilarning fikricha, tashqi siyosat har bir davlatning milliy manfaatlariga muvofiq shakllanadi hamda diplomatiya uning ichki siyosati bilan uzviy bog'liq bo'lib, davlat qudratini belgilab beruvchi eng muhim omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, Amir Temur davlati tashqi siyosati va xalqaro munosabatlarini o'rganish tarixiy-sivilizatsion, siyosiy va geosiyosiy tahlilni uyg'unlashtirgan kompleks, ko'p tarmoqli yondashuvni talab etadi. Tashqi siyosat tarixi faqat diplomatik harakatlar yoki harbiy yurishlar majmuasi sifatida emas, balki siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ideologik hamkorliklar tizimidan iborat ko'p o'lchovli jarayon sifatida tahlil etiladi. Ana shu munosabatda Amir Temur diplomatiyasi alohida holdagi tarixiy hodisa emas, balki XIV-XV asrlardagi Yevrosiyo makonida shakllangan xalqaro munosabatlar sivilizatsion modeli tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro munosabatlar nazariyasining realizm, neoliberalizm, konstruktivizm kabi klassik va zamonaviy yo'nalishlarini hamda sivilizatsion yondashuvlarni uyg'un ravishda qo'llashga tayanadi. Bunday nazariy sintez Amir Temur tashqi siyosiy faoliyatining o'ziga xos jihatlari va ko'p qavatli tuzilishini ochib berish, shuningdek, uning jahon siyosiy tizimlari evolyutsiyasidagi o'rnini aniqlash imkonini beradi.

Birinchidan, siyosiy realizm paradigmasi¹ Amir Temur tashqi siyosatini keskin geosiyosiy raqobat sharoitida kuch va ta'sirni saqlab turish vositasi sifatida anglash imkonini beradi. Bu yondashuvda Temurning Yevrosiyo makonida barqaror kuchlar muvozanatini shakllantirishga intilishi markaziy o'rin tutadi. U Usmoniyalar, Oltin O'rda va Misr

¹ Моргентау Г. Политические отношения между нациями: борьба за власть и мир / Пер. с англ. — М.: Логос, 2005. — 528 с.

mamlyuklar sultonligi bilan munosabatlarda ittifoqlar va qarshi ta'sir tizimini yaratib, strategik barqarorlik arxitekturasi asosiy me'mori sifatida namoyon bo'lgan.

Ikkinchidan, liberal-institutsional yondashuv² Amir Temur siyosatini xalqaro aloqalarni institutsionallashtirish va savdo-sotiq hamda diplomatiya sohalarida o'zaro bog'liqlik tizimini shakllantirishga qaratilgan jarayon sifatida talqin etish imkonini yaratadi. Elchilik missiyalari, Yevropa monarxialari bilan tuzilgan kelishuvlar va savdo yo'llarini tartibga solish harakatlari xalqaro hamkorlikning ilk shakllari va tuzilmaviy diplomatiya asoslarining vujudga kelayotganini ko'rsatadi.

Uchinchidan, konstruktivistik metodologiya³ Amir Temur tashqi siyosiy faoliyatini xalqaro tartibni ramziy jihatdan yaratish shakli sifatida tahlil etish imkonini beradi. Bu holda diplomatiya nafaqat manfaatlarni amalga oshirish vositasi, balki davlatning xalqaro maydondagi madaniy qiyofasi, siyosiy legitimligi va sivilizatsion obro'sini shakllantirish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Xalqaro muloqotda g'oyaviy va diniy motivlarning faol qo'llanilishi Amir Temur davlatining sivilizatsion ta'sirini mustahkamlagan.

To'rtinchidan, sivilizatsion yondashuv⁴ Amir Temur tashqi siyosatini Sharq va G'arb siyosiy madaniyatlari sintezining natijasi sifatida izohlash imkonini beradi. Amir Temur diplomatiyasi turli sivilizatsiyalar o'rtasida o'zaro madaniy moslik, tinch hamjihatlik va strategik uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan transsivilizatsion hamkorlik shakli sifatida namoyon bo'lgan.

Yuqoridagi yondashuvlar asosida Amir Temur davlati tashqi siyosati va xalqaro munosabatlari harbiy, savdo-iqtisodiy, madaniy va ideologik diplomatiya elementlarini qamrab olgan ko'p qavatli tizim sifatida tahlil qilinadi. Bunday yondashuv Amir Temur shaxsini faqat harbiy sarkarda yoki davlat arbobi sifatida emas, balki xavfsizlik, barqarorlik va madaniy hamjihatlikni ta'minlashga yo'naltirilgan sivilizatsion diplomatiyaning noyob konsepsiyasi muallifi sifatida o'rganish imkonini beradi.

Amir Temur davlatidagi tashqi siyosat va diplomatiyasining o'ziga xos jihatlari shundaki, u dunyoda mavjud bo'lgan turli davlatlar bilan, ularning siyosiy tuzilishi va mafkuraviy farqlaridan qat'iy nazar, konstruktiv hamkorlik munosabatlarini o'rnatishga yo'naltirilgan edi.

Birinchidan, tashqi siyosat davlatning ichki siyosiy jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanib, uning ichki tuzilishi va siyosiy maqsadlarining ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun jahon hamjamiyati ko'p hollarda muayyan davlatning tashqi siyosatini uning butun milliy mavqei yoki hatto aholisi bilan tenglashtirib baholaydi.

Ikkinchidan, tashqi siyosat xalqaro munosabatlar va jahon siyosiy tizimi ichida rivojlanuvchi kategoriya bo'lib, uning samaradorligi maqsad va imkoniyatlar o'rtasidagi pragmatik muvozanatni ta'minlashga bog'liq. Bu holat tashqi siyosatning strategik rejalashtirish va amalga oshirish bosqichlarida ratsional yondashuvni talab qiladi.

Uchinchidan, tashqi siyosat o'z mohiyatiga ko'ra faqat xuddi shunday sub'ektlar – davlatlar va xalqaro aktorlar bilan o'zaro munosabatlarga qaratilgan bo'ladi. Shu sababli har bir davlat xalqaro maydonda o'z tashqi siyosiy yo'nalishini belgilaydi va uni amalga oshirish orqali

² Кеохэйн Р. После гегемонии: сотрудничество и разногласия в мировой политике / Пер. с англ. — М.: Аспект Пресс, 2002. — 384 с.

³ Вендт А. Социальная теория международной политики / Пер. с англ. — М.: Изд-во РОССПЭН, 2017. — 528 с.

⁴ Тойнби А. Постигание истории / Пер. с англ. — М.: Прогресс, 1991. — 736 с.

o'zining xalqaro maqomini, manfaatlarini va xavfsizlikni ta'minlash strategiyasini shakllantiradi⁵.

Amir Temur davlati tashqi siyosatining nazariy tahlili davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, hokimiyatni shakllantirish mexanizmlari va xavfsizlikni ta'minlash tamoyillarini izohlovchi sotsiologik va siyosiy fikrning fundamental konsepsiyalariga murojaat etishni talab qiladi. Davlatlarning tashqi siyosiy xatti-harakati qonuniyatlarini ochib beruvchi klassik nazariyalar orasida L.Gumplovich⁶ konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u tashqi siyosatni ichki siyosiy tuzilmaning negizi va davlatchilik tarixiy evolyutsiyasining asosiy omili sifatida talqin qiladi.

An'anaviy yondashuvga ko'ra, tashqi siyosat ichki siyosatning davomi sifatida qaraladi (K.Klauzevits⁷ urush va diplomatiya haqida aynan shu fikrni ilgari surgan), ammo aynan tashqi muhit davlatning ichki siyosatini belgilaydi⁸. Uning nazariy qarashlarida tashqi siyosiy faoliyat jamiyatning ichki rivojlanishiga yo'nalish beradi, hokimiyat tizimini va uning institutsional mexanizmlarini shakllantiradi, bu esa davlatning raqobatli xalqaro muhitda yashovchanligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur nazariy modelni Amir Temur davlati tahliliga qo'llash, tashqi siyosatni faqat reaktiv faoliyat emas, balki davlatning ichki tarkibi, hokimiyatning g'oyaviy asoslanishi va uning tuzilmaviy tashkil topishida hal qiluvchi omil sifatida ko'rish imkonini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, Amir Temur tashqi siyosiy strategiyasi amalga oshirilgan uchta asosiy yo'nalishni ko'rsatish mumkin⁹.

Birinchidan, Amir Temur davlatining tashqi siyosati harbiy-siyosiy salohiyatni mustahkamlash bilan uzviy bog'liq. "Ichki siyosat harbiy qudratni oshirishga qaratilmog'i lozim"¹⁰ degan tamoyiliga muvofiq, Amir Temur davlat institutlarini jamiyatning doimiy jangovor tayyorgarligi va mobilizatsion salohiyatini ta'minlaydigan tarzda tashkil etgan. Harbiy kuch uning nazariy modeldagi asosiy maqsad emas, balki xavfsizlik, hududiy yaxlitlik va hokimiyatning legitimligini kafolatlovchi vosita sifatida qaralgan. Shu ma'noda, Amir Temur tashqi siyosati davlatning ma'muriy, iqtisodiy va ideologik tuzilmasi shakllanishi atrofida markaziy ustun vazifasini bajargan.

Ikkinchidan, chegara oldi hamkorlik nuqtai nazaridan qaralganda, Amir Temur qo'shni davlatlarga (Misr mamlyuklar sultonligi, Oltin O'rda, Usmoniylar imperiyasi, Eron, Hindiston va Xitoy) nisbatan tashqi siyosati keng qamrovli muvozanat, ekspansiya va hamkorlik o'rtasidagi murakkab munosabatni ifodalaydi. Chegara hududlari faqat harbiy tahdid manbai sifatida emas, balki iqtisodiy va madaniy almashinuv uchun muhim makon sifatida ko'rilgan. Shu tariqa, Amir Temur tashqi siyosati turli kelishuvlar, vassallik munosabatlari va harbiy-siyosiy ittifoqlar tizimi orqali chegara barqarorligini ta'minlashga xizmat qilgan. Bunday yondashuv davlatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlashda chegara oldi hamkorlikning hal qiluvchi ahamiyati to'g'risidagi qarashlariga muvofiq keladi.

⁵ Косолапов Н.А. Внешняя политика и внешнеполитический процесс субъектов международных отношений // Мировая экономика и международные отношения. 1999. №3. С. 64-73

⁶ Баранов Н.А. Теория политики // Международные отношения и геополитика. Режим доступа: <http://iead.virmk.ru/b/BARANOV POLITICA/21.htm>.

⁷ Клаузевиц К. фон. О войне / Пер. с нем. — М.: Государственное издательство, 1958. — 732 с.

⁸ Гумплович Л. Основы социологии / Пер. с нем. — М.: Изд-во «Юрайт», 2020. — 410 с.

⁹ Моргентхау Г. Политические отношения между нациями: борьба за власть и мир / Пер. с англ. — М.: Логос, 2005. — 528 с.

¹⁰ Гумплович Л. Основы социологии / Пер. с нем. — М.: Изд-во «Юрайт», 2020. — 410 с.

Uchinchidan, Amir Temur davlatining tashqi siyosati arxitekturasida “xavfsizlik dilemmasi”, ya’ni raqib davlatlar harbiy jihatdan kuchayishini oldini olish orqali kuchlar muvozanatini saqlash zarurati markaziy o’rinni egallagan. Amir Temurning mintaqaviy siyosati ushbu tamoyilni to’liq ifoda etgan. Uning diplomatik va harbiy harakatlari Yevrosiyo mintaqasida strukturaviy muvozanatni shakllantirish, ya’ni biror aktorning (masalan, Oltin O’rda yoki Usmoniylar imperiyasining) haddan tashqari kuchayishiga yo’l qo’ymaslikka qaratilgan edi. Amir Temurning tashqi siyosat strategiyasi xalqaro tizimdagi kuchlar taqsimotiga faol ta’sir ko’rsatish, global konfiguratsiyadagi monopolyar kuch markazlarining shakllanishini oldini olish orqali geosiyosiy barqarorlikni saqlashga yo’naltirilgan.

Amir Temur davlati tashqi siyosati va xalqaro munosabatlarini tahlil qilishda zamonaviy nazariy maktablar — realizm, liberal-institutsionalizm, konstruktivizm va sivilizatsion yondashuvlarning ahamiyati ochib berildi. Ushbu yondashuvlar asosida Temur diplomatiyasi faqat harbiy qudratga asoslangan siyosat emas, balki Yevrosiyo makonida savdo-iqtisodiy hamkorlik, madaniy almashinuv va ideologik o’zaro ta’sirlarni uyg’unlashtirgan kompleks tizim sifatida namoyon bo’lgani aniqlandi. Amir Temur davlatining tashqi siyosati geosiyosiy barqarorlikni ta’minlash, kuchlar muvozanatini shakllantirish hamda turli sivilizatsiyalar o’rtasida konstruktiv muloqot maydonini yaratishga xizmat qilgani bilan ajralib turadi. Shunday qilib, Temur diplomatiyasi XIV–XV asrlar xalqaro tizimi uchun sivilizatsion integratsiya va strategik hamjihatlikning muhim tarixiy modeli bo’lib, uning siyosiy merosi bugungi xalqaro munosabatlar nazariyalarida ham dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Вендт А. Социальная теория международной политики / Пер. с англ. — М.: Изд-во РОССПЭН, 2017. — 528 с.
2. Гумплович Л. Основы социологии / Пер. с нем. — М.: Изд-во «Юрайт», 2020. — 410 с.
3. Кеохэйн Р. После гегемонии: сотрудничество и разногласия в мировой политике / Пер. с англ. — М.: Аспект Пресс, 2002. — 384 с.
4. Клаузевиц К. фон. О войне / Пер. с нем. — М.: Государственное издательство, 1958. — 732 с.
5. Косолапов Н.А. Внешняя политика и внешнеполитический процесс субъектов международных отношений // Мировая экономика и международные отношения. 1999. №3. С. 64-73
6. Моргентгау Г. Политические отношения между нациями: борьба за власть и мир / Пер. с англ. — М.: Логос, 2005. — 528 с.